Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda bir qator ishlar amalga oshirilib, tadbirkorlik subyektlariga ko‘maklashilmoqda.

Soliq tizimini takomillashtirish: Soliq yukini kamaytirish va biznes uchun qulay sharoitlar yaratish tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlari uchun bir qator soliq imtiyozlari joriy etilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish asosan inson kapitalini rivojlantirishda birinchidan, ta’lim tizimi faoliyatidagi mavjud kamchiliklar bartaraf etish orqali uning sifati oshirish; ikkinchidan, sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini va aholi uchun undan foydalanish imkoniyati kengaytirish; uchinchidan, kambag‘allikni o‘lchash tizimini, unga qarshi kurashish tizimini takomillashtirib borish; to‘rtinchidan, aholi zaif qatlamlarining mehnat bozoridagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirish; beshinchidan, aholini tabiiy gaz, toza ichimlik suvi ta’minoti va sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim o‘rin tutadi. Bu va shunga mos ravishda hududiy va respublika miqyosidagi Dasturlar ijrosi istiqbolda aholi farovonligini yanada ortishiga tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish masalalari umid uyg‘otadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish aholi farovonligini oshirishning eng samarali vositalaridan biridir. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida tadbirkorlik sohasidagi muammolarni bartaraf etish va bu yo‘nalishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali yanada katta natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni, 28.01.2022 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2023 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi. 07.11.2019. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi.
4. Kamoliddinov I. Namangan viloyatida kichik ishlab chiqarish tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari //Obщyestvo i innovasii. – 2022.

MILLIY HISOB TIZIMIDA BIOLOGIK AKTIVLARNI HISOBGA OLISH BO‘YICHA TAKLIF VA TAVSIYALAR

Axmadaliyeva Zebo Abduxalimovna
Farg‘ona politexnika instituti mustaqil tadqiqotchi
z.a.axmadaliyeva@ferpi.uz

Annotatsiya: Maqolada biologik aktivlarini hisobga olishning zamonaviy usullarini o‘rganish; hisoblar rejasini takomillashtirish asosida biologik aktivlarni adolatli qiymatda hisobga olish metodologiyasi ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: biologik aktiv, biotransformatsiya, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, baholash, adolatli qiymat, 41-"Qishloq xo‘jaligi" buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (IAS)

KIRISH

Bizga ma’lumki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning

Published: 23.12.2024

Cite this article: Axmadaliyeva Zebo Abduxalimovna (2024). Milliy hisob tizimida biologik aktivlarni hisobga olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1063

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611 Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respulikasida faoliyat yuritayotgan barcha bank, sug‘urta va aksionerlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartalariga muvofiq tuzish vazifasi belgilab qo‘yilgan. Shunday bo‘lsada yuridik shaxslar oldida buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq shakllantirilgan alohida hisobotlarni ham tuzishlari va ularni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)ga transfotmatsiya jarayonlarini amalga oshirishlari hamda hisobotlarni tayyorlash usullaridan qat'i nazar moliyaviy hisobotlarni taqdim etishlari zarurati paydo bo‘ldi.

Shunday ekan, milliy hisob tizimida hisoblar rejasini takomillashtirmasdan turib, biologik aktivlarni ishonchli hisobga olish mumkin emas. MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish tartibini o‘zgartirish bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan takliflar o‘z mohiyatiga ko‘ra fundamental bo‘lib, zamonaviy buxgalteriya amaliyotini tubdan o‘zgartiradi. Bu birinchi navbatda milliy hisob tizimida yangi hisob rejasini joriy etish bilan bog‘liq zaruratni yuzaga keltiradi. Buxgalteriya hisobini yangi tartibiga o‘tishi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak, chunki buxgalterlar oldida turgan noqulayliklarni oldini olish, yangi buxgalteriya qoidalarini ishlab chiqishni amalga oshirish uchun zamin yaratilishi kerak bo‘ladi. Yuqoridagilarni inobatga olib , milliy buxgalteriya hisobi standartidan unchalik farq qilmaydigan buxgalteriya hisobi tartibini ishlab chiqish va u o‘z ichiga bevosita xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida , shu jumladan 41-sonli IAS "Qishloq xo‘jaligi" da taklif qilingan talablarni hisobga olgan xolda tuzilishi zarur deb hisoblaymiz.

Lekin shuni alohida takidlash kerakki, hozirgi kunda mavjud bo‘lgan buxgalteriya hisobi tizimi biologik aktivlar to‘g‘risida ma’lumotlarni zarur bo‘lgan miqdor va shaklda olishga imkon bermaydi. Bu esa tanlangan ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tarixiy, tizimli yondashuv, induktiv va deduktiv usullar, taqqoslash, iqtisodiy-statistik, ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish kabi umumiy ilmiy usullardan foydalangan holda, o‘simlikchilikning biologik aktivlarini hisobga olishning zamonaviy metodologiyasi o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarini erkinlashtirishga qaratilgan qator islohotlar izchillik bilan olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror loyihasida 2030 yilda aholi jon boshiga YaIM ikki baravarga oshirish, iqtisodiy o‘sish sur’atlari o‘rtacha yillik 6,4 foiz, kapital qo‘yilmalar 9,9 foiz, eksport 9,6 foizni tashkil etishi hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini 1,8 martaga oshirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni standartlashtirishni amalga oshirish va milliy standartlarni xalqaro standartlarga moslashtirish ko‘zda tutilgan. Demak, o‘z navbatida ushbu raqamlar haqida ishonchli axborotlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimi ham xalqaro darajada mukammal bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaralganda Respublikamizda buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazish va uni qo‘llash bo‘yicha muhim islohotlar boshlandi.

Xorijiy investitsiyalarning oqimi va tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi (eksport-import) korxonalar, jumladan qishloq ho‘jaligi korxonalari uchun imkoniyatlarni beradi. Shu nuqtai nazardan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni respublikamiz amaliyotiga qo‘llash muhim masalalardan biriga aylanib qolmoqda. Shunday standartlardan biri - bu “Qishloq xo‘jaligi” deb

nomlangan 41-son IAS hisoblanadi. Mazkur standart boshqa sohalarga nisbatan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan standartlardan farqli jihatlari va o‘ziga xos xususiyatga ega. Agrar sohada ushbu standartning qo‘llanilishi qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobini jahon standartlariga muvofiqlashtirish imkonini beradi. Mazkur standart birinchi marta biologik aktivlar va yig‘im jarayonidagi qishloq xo‘jaligi hosillari kabilarning alohida hisob birligi sifatida tan olinishini ko‘rsatib beradi.

Demak, standart o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, uni amaliyotga qo‘llashda sohaga oid mutaxassislardan chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda xorijiy tajribani o‘rganish talab etiladi.

Qishloq xo’jaligi faoliyati bilan bog‘liq korxonalarda biologik aktivlarni hisobga olishning joriy holatini tahlil qilish asosida biz biologik aktivlarni hisobga olish jarayonini optimallashtirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqdik, jumladan:

-biologik aktivlarni baholashda adolatli qiymatdan foydalanish;

-biologik aktivlarni hisobga olish uchun alohida schyotlar ajratgan holda hisoblarning schyotlar rejasiga o’zgartirishlar kiritish;

-biologik aktivlar harakati bo’yicha birlamchi buxgalteriya hujjatlari shakllarini o’zgartirish.

Tadqiqot jarayonida biz korxona biologik aktivlarini uzoq muddatli aktivlarning maxsus turi sifatida milliy buxgalteriya hisobida alohida schotlarda aks etiluvchi aktivlar ekanligini asoslab berdik.

Hozirgi vaqtda biologik aktivlarni milliy hisobda aks ettirish uchun quyidagi schyotlar qo’llaniladi: 0100-“Asosiy vositalar” schyotining 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar”, 0180-“Ko‘p yillik o‘simliklar” subschyotlarida, 0200-“Asosiy vositalarning amortizatsiyasi” schyotining 0270-“Ishchi va mahsuldor hayvonlarining eskirishi”, 0280-“Ko‘p yillik o‘simliklarni eskirishi” subschyotlarida aks etirilgan.

Lekin shuni alohida takidlash kerakki, 5-son buxgalteriya hisobining milliy standartlari va 41-son IAS “Qishloq xo’jaligi” talablari o‘rtasida bilan ziddiyatlar mavjud. Shu sababli ham xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasiga ishchi schyotlar, ya’ni 0100-“Asosiy vositalar” tarkibiga kiruvchi 0171-chorvachilik biologik aktivlari, 0181-o‘simlikchilik biologik aktivlari schyotlari kiritishni taklif etamiz.

Biologik aktivlarning sintetik va analitik schyotlarini hisobga olish bo’yicha taklif etilayotgan o’zgartirishlar.[103]

	Schyot nomi	Schyot raqami	Subschyot raqami va nomi
	Asosiy vosita sifatida hisobga olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	0170 0180	0170-chorvachilik 0180-o‘simlikchilik
	Asosiy vosita sifatida hisobga olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari amortizatsiyasi	0270 0280	0270-chorvachilik amortizatsiyasi 0280-o‘simlikchilik amortizatsiyasi
	Aylanmadan tashqari biologik aktivlar	0170 0180	0171-chorvachilik biologik aktivlari 0181-o‘simlikchilik biologik aktivlari

[103] Muallif ishlanmasi

	Qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan korxonalarga aylanmadan tashqari biologik aktivlarga kiritilgan investitsiyalar	0670 0680	0670- chorvachilik aylanmadan tashqari biologik aktivlarga kiritilgan investitsiyalar 0680-o‘simlikchilik aylanmadan tashqari biologik aktivlarga kiritilgan investitsiyalar

Ho‘jalik yurituvchi subyektlarning biologik aktivlari bo’yicha ixtisoslashtirilgan schyotlar rejasini takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif qilamiz

1. 0171-chorvachilik biologik aktivlari schyoti;

2. 0181-o‘simlikchilik biologik aktivlari schyoti;

3. 0100-“Asosiy vositalar” schyotlari tarkibidagi 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar”, 0180-“Ko‘p yillik o‘simliklar” subschyotlari, 0170-“Asosiy vosita sifatida hisobga olinadigan chorvachilik mahsulotlar”, 0180-“Asosiy vosita sifatida hisobga olinadigan o‘simlikchilik mahsulotlari” schyotlariga;

4. 0200-“Asosiy vositalar” schyotlari tarkibidagi 0270-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar”, 0280-“Ko‘p yillik o‘simliklar” subschyotlari, 0270-“Asosiy vosita sifatida hisobga olinadigan chorvachilik mahsulotlar amortizatsiyasi”, 0280-“Asosiy vosita sifatida hisobga olinadigan o‘simlikchilik mahsulotlari amortizatsiyasi” schyotlariga;

5. 0670- chorvachilik aylanmadan tashqari biologik aktivlarga kiritilgan investitsiyalar schyotiga.

6. 0680-o‘simlikchilik aylanmadan tashqari biologik aktivlarga kiritilgan investitsiyalar schyotiga almashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz;

Bu aylanmadan tashqari aktivlar tarkibidan “Asosiy biologik aktivlar”ni ajratib ko’rsatish, ularning hisobini qishloq xo’jaligi faoliyatining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida yuritish imkonini beradi;

Qishloq xo‘jaligida faoliyati moliyaviy natijalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Daromad va xarajatlarning o‘zaro muvofiqligi tamoyiliga asosan:

birinchidan, biologik aktivlarni sotish xarajatlari chegirib tashlangandagi haqqoniy qiymatda dastlabki tan olishda hamda sotish xarajatlari chegirib tashlangandagi haqqoniy qiymatning o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan foyda yoki zarar u qaysi davrda yuzaga kelgan bo‘lsa, o‘sha davrning foyda yoki zarari tarkibiga kiritilishi talab etiladi. Biologik aktivning dastlabki tan olinishida zarar vujudga kelishi mumkin, chunki sotish xarajatlari biologik aktivning sotish xarajatlari chegirib tashlangandagi haqqoniy qiymatini aniqlashda ayriladi. Bunday hisoblashning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, biologik aktivni dastlabki tan olinishida foyda vujudga kelishi mumkin, masalan sotib olingan sigirdan buzoq tug‘ilganda foydani tan olinadi.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi hosilini sotish xarajatlari chegirib tashlangandagi haqqoniy qiymatda dastlabki tan olish natijasida vujudga keladigan foyda yoki zarar u qaysi davrda vujudga kelgan bo‘lsa, o‘sha davrning foyda yoki zarari tarkibiga kiritiladi. Bunda qishloq xo‘jaligi hosilini dastlabki tan olishdagi foyda yoki zarar ularni yig‘ishtirish natijasida vujudga kelishi mumkin.

Shuningdek, biologik aktivlar haqidagi ma’lumotlarni to‘liq ochib berishda quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi: yetilgan biologik aktivlar yoki yetilmagan biologik aktivlar. Bu yerda yetilgan biologik aktivlar sifatida (iste’molga mo‘ljallangan biologik aktivlar uchun) yig‘ishtiriladigan xususiyatlariga erishgan yoki (hosil beradigan biologik aktivlar uchun) muntazam hosil bera oladigan aktivlar tushuniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlar biologik aktivlarini uzoq muddatli aktivlarning maxsus turi sifatida milliy buxgalteriya hisobida alohida schotlarda aks etiluvchi aktivlar ekanligini asoslab berdik.

Hozirgi vaqtda biologik aktivlarni milliy hisobda aks ettirish uchun quyidagi schyotlar qo’llaniladi: 0100-“Asosiy vositalar” schyotining 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar”, 0180-“Ko‘p yillik o‘simliklar” subschyotlarida, 0200-“Asosiy vositalarning amortizatsiyasi” schyotining 0270-“Ishchi va mahsuldor hayvonlarining eskirishi”, 0280-“Ko‘p yillik o‘simliklarni eskirishi” subschyotlarida aks etirilgan.

Lekin shuni alohida takidlash kerakki, 5-son BHMS va 41-son MHXS “Qishloq xo’jaligi” talablari o‘rtasida bilan ziddiyatlar mavjud. Shu sababli ham xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasiga ishchi schyotlar, ya’ni 0100-“Asosiy vositalar” tarkibiga kiruvchi 0171-chorvachilik biologik aktivlari, 0181-o‘simlikchilik biologik aktivlari schyotlari kiritishni taklif etamiz.

41-son IAS “Qishloq xo‘jaligi” qoidalarini respublikamiz amaliyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash imkoniyati mavjud emas. Buning uchun xalqaro amaliyotdan foydalangan Biologik aktivlar buxgalteriya hisobida olib borilgan tadqiqot asosida quyidagicha xulosa berildi.

Milliy hisob tizimida qishloq xo‘jaligiga faoliyati bilan bog‘liq asosiy vositalar qiymatini baholash 5-son BHMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobi qonunchiligi va milliy standartlarda biologik aktivlar tushunchasi boshqacha talqinda berilgan:, jumladan, 21-son BHMSda (Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma, 1-bo‘lim, 2-band) “Ishchi va mahsuldor hayvonlar”, “Ko‘p yillik o‘simliklar” va “O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar” nomi bilan hisobga olinadi. Qishloq xo‘jaligi hosiliga kiruvchi bir yillik o‘simliklar (paxta, g‘alla va boshq.) bunda hisobga olinmagan.

Bizning fikrimizcha, Respublikamiz qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq korxonalar uchun “Qishloq xo‘jaligi” nomli 41-sni BHXS negizida Agrar soha uchun “Biologik aktivlar hisobi” yoki shunga o‘xshash modefikatsiyalashgan standartni ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdukhalimovna, AZ, & Nabievich, II (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11), 86-92.

2. Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A., & No, D. M. O. G. L. (2022). SOLIQ YUKINING BIZNES UCHUN AHAMIYATI. Scientific progress, 3(3), 699-708.

3. Axmadaliyeva, Z. A. (2023). MHXS ASOSIDA INVESTITSION MULKLARNI HISOBGA OLISHNING O‘ZIGA XOSLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 801-811.

4. ZA Axmadaliyeva (2024) Biologik aktivlar buxgalteriya hisobni milliy va xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalari YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 1 (4), 27-31 2024.

5. AZ Abduxalimovna XALQARO VA MILLIY STANDARTLARGA KO‘RA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINING MUAMMOLI MASALALARI Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnal 7, 498b.

AZ Abduxalimovna MILLIY HISOB TIZIMIDA BIOLOGIK AKTIVLARNI HISOBGA OLISH BO ‘YICHA TAKLIF VA TAVSIYALAR. Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnal 8, 455-464b

TUGALLANMAGAN QURILISH VA QURILISH OB’EKTLARI TANNARXINI TAHLILI

Yakubov Ulug‘bek Kosimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya.
Qurilish milliy iqtisodiyotning mustaqil alohida tarmog‘i bo‘lib, yangi asosiy fondlarni yaratish hamda faoliyat yurgizayotgan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qayta qurish, kengaytirish, ta’mirlash va texnik qayta jihozlash uchun mo‘ljallangan. O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari bo‘yicha makroiqtisodiy ko‘rsatkiclarining o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Statistik ma’lmotlarga ko‘ra 2022 yil qurilishda ijro 130791 mlrd so‘mni, 2023 yilda 150793 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024 yilda 235581 mlrd so‘m bo‘lishi kutilgan. Mazkur ko‘rsatkichlarning 2025-2026-2027 yillarda mos ravishada o‘tgan davrlarga nisbatdan 14,2; 10,2; 7,3 foizga o‘sishi prognoz qilingan. Shu sababdan, qurilishda faoliyat ko‘rsatayotgan biznes sub’ektlari faoliyatini iqtisodiy tahlili asosida samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish davr talabi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar.
Qurilish, tugallanmagan qurilish, qurilish obyekti, ko‘rsatkich, tannarh, smeta, pudrat usulida qurish, xo‘jalik hisobida qurish.

Kirish.
Qurilishning samarali faoliyatida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashuvi, moddiy-texnika baza va ishlab chiqarish tuzilishining takomillashtirilishi kabi omillar muhim o‘rin tutadi. Qurilishda obyektlarning muddatlarini sezilarlarli darajada kamaytirish va me’yordan ortiq tugallanmagan qurilishga barham berish, investitsiya, o‘z mablag‘lari va bank kreditlarining rolini oshirish zarur. Kapital qo‘yilmalar yangi qurilishga, qayta tiklashga, biznes su,yektlarni kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga bo‘lgan xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Kapital qurilish ikkita: pudrat va xo‘jalik usulida amalga oshiriladi. Qurilishni pudrat usulida ishlar ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan olib boriladi. Ixtisoslashgan tashkilotlar qurilish buyurtmachilari bilan tuzilgan pudrat shartnomasiga asosan pudratchi hisoblanadi. Pudrat shartnomasi (rus. podryad — bir yo‘la) — fuqarolik-huquqiy bitim, unga ko‘ra, bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig‘iga binoan, muayyan ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi[104]. Pudrat shartnomasi buyurtmachi va pudratchi o‘rtasidagi munosabatlar me’yorini qat’iy belgilovchi va shartnomadagi majburiyatlarning bajarilmaganligi uchun iqtisodiy javobgarligini belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Pudrat shartnomasi buyurtmachi tomonidan bosh pudratchi bilan kapital qurilish rejasiga kiritilgan va o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan titul ro‘yxatlariga ega bo‘lgan qurilishlarning butun davriga tuziladi. Zarur bo‘lganda bosh pudratchi muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun subpudratchi vazifasini o‘taydigan ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega. Bunda ishlarning o‘rnatilgan muddatlarda bajarilishi hamda sifati uchun bosh pudratchi javobgar hisoblanadi.

Xo‘jalik usulida qurilish ishlari biznes subyektining quruvchi bo‘linmalari tomonidan olib boriladi. Qurilishga ixtisoslashgan tashkilotlar jalb qilmagani bois,

[104] https://uz.wikipedia.org/wiki/Pudrat_shartnomasi_asoslari